

**ORIENTAL UNIVERSITETI KENGASHINING 5 - SON YIG'ILISH  
BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA**

2026-yil 26-fevral

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: N.Mamataxunov

Kengash kotibi: D.Nurmuxamedova

Qatnashdilar: Kengashning 27 nafaridan 25 nafar a'zosi (ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI:**

8.5.-Turli masalalar:

- O'quv adabiyotlarni nashrga tasdiqlash to'g'risida.

**ESHITILDI:**

Kun tartibidagi mazkur masala yuzasidan O'quv-uslubiy kengash raisi X.Aminov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi. O'quv-uslubiy kengash muhokamasiga **Tillar-2** kafedra professor-o'qituvchilari hammualliflikda **Muratxodjayeva Feruzaxon Xotamovna, Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi** tomonidan tayyorlangan "**Comparative methodology of teaching foreign languages**" nomli o'quv qo'llanmani nashrga tasdiqlash bo'yicha hujjatlar kelib tushganligi aytib o'tdi va ushbu masala 2026-yil 23-fevral sanasida bo'lib o'tgan 5-sonli O'quv-uslubiy kengash muhokamasida ko'rib chiqilib, universitet kengashiga nashr etish uchun tasdiqqa kiritilganligini bildirdi.

Ma'ruzachi kengash a'zolaridan ushbu o'quv qo'llanmani nashrga tasdiqlab berishlarini so'radi. Kengash a'zolari tomonidan ushbu masala bir ovozdan ma'qullandi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, universitet Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O'quv-uslubiy kengash raisi X.Aminovning kun tartibi bo'yicha axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tillar-2 kafedra professor-o'qituvchilari hammualliflikda **Muratxodjayeva Feruzaxon Xotamovna, Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi** tomonidan tayyorlangan "**Comparative methodology of teaching foreign languages**" nomli o'quv qo'llanma nashrga tasdiqlansin va barcha zaruriy hujjatlar rasmiylashtirilsin.

Kengash kotibi



D.Nurmuxamedova